

IBROYIM YUSUPOV SHE'RLARIDA VATAN MADHI

Dilnoza Murotova Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

murotovadilnozaxon@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ibroyim Yusupov she'rlaridagi vatanparvarlik tuyg'ulari haqida so'z boradi. Shoir she'rlaridan namunalar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** she'riy tafakkur, Vatanparvarlik, sodiqlik, sadoqat, poetik manzara;*

Uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (o'ziga xos) tarzda yaratish san'atidir. Shuningdek, uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so'zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyliigi – butun borlig'ini namoyon etuvchi badiiy hodisa, vositadir. XX asr o'zbek adabiyotidagi mashhur shoirlardan biri Ibroyim Yusupovdir. Ibrohim Yusupov she'riyatining o'ziga xosligining asosiy jihati ham uning o'zbek va qaraqalpoq she'riyatida o'ziga xos uslubga ega bo'lishidadir. Shoir she'riyatida turli mavzularni uchratamiz, muhabbat, vatan, millat taqdiri masalasi shoir ijodining asosiy negizini tashkil etadi.

Lirikada vatan mavzusi doimiy mavzu bo'lib, uni har bir shoir ijodida uchratamiz. Ibroyim Yusupov esa Vatanni, O'zbekistonni, Qoraqalpoq xalqini boricha hayotiy misollar orqali tasvirlaydi. Shoir she'rlarning o'lmasligi hamda xalqchilligi ham shundadir.

*"Bir yog'im suv, bir yog'im cho'l bo'lmasa,
Jannat qurib bersang ham men bormayman,
Gul va yovshan hidi anqib turmasa,
U yerda men qoraqalpoq bo'lmayman."*

"Bir yog'im suv, bir yog'im cho'l bo'lmasa" satrlarida har bir giyohdan tortib, buyuk tog'larigacha shoirning vatani ekanligi, ularsiz bir muddat ham yashay olmasligini yuqoridagi satrlarda e'tirof etadi. Ibohim Yusupov lirik qahramoni vatanning har bir zarrasi bilan tirik ekanligi poetik tasvirda ifodalanadi. Aynan shu jihatlar shoir ijodining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Shunday zotlar borki cho'lni guliston-u bo'stonga aylantirib o'z xalqining nomini dunyolarga tarannum etadi. Shunday mo'tabar insonlardan biri Qoraqalpoq dilbandi, xalq shoiri Ibroyim Yusupov ijodida vatan tuyg'usi o'zgacha talqin etiladi. Mening fikrimcha, Vatan mavzusini qalamga olishda Shoir o'z Qoraqalpoq'ini jonidan ortiq ko'radi. Uning o'g'lonlari-yu qizlari haqida jo'shib –toshib kuylaydi. Chingiz Aytmatov shoir haqida: "Men qoraqalpoq xalqini va uning buyuk o'g'loni Ibroyim Yusupovni sevaman. She'riyat juda murakkab narsa. Uni qaysi tilda yoilgan bo'lsa, usha tilda tushunish kerak. Lekin men Ibroyim Yusupov she'rlarining tarjimalarini o'qiyman. Shoir she'rlarining tarjimasi ham xuddi aslidagidek insonni hayajonga soladi. "Qoraqalpoqni ko'p maqtamang ko'zima" she'ri ham yuqoridagi fikrimni tasdiqlaydi. Shoir xalqiga bag'ishlangan ushbu she'rida lirik qahramon shoirning o'zi:

*Qoraqalpoqni ko'p maqtama ko'zimcha,
Qarmoqqa tez tushadigan baliqman.
Har kimning bor ojiz joyi o'zicha,
Cho'rtanimday sal anqovroq xalqman.*

Yuqoridagi satrlada ham aynan millatning qanday bo'lsa, shundayligicha sevish masalasi xal etiladi. Quruq maqtovlar shoirga yoqmaydi, u o'z millatini qandayligini biladi. SHuning uchun ham millat g'ururi va taqdiri aynan shu she'rda o'z ifodasini topgan. SHoir ritorikasi quyidagi satrda yanada yorqinroq aks etgan. Aynan bu kabi ritorikani boshqa shoirlarimiz ijodida ham uchratamiz.

*Shundayam, bir o‘tinchim bor, odamlar:
Qoraqalpoqni ko‘p maqtamang o‘zimga.*

Shoir ijodida O‘zbekiston, o‘zbek xalqi haqidagi quyma satrlar ham talaygina. Biz buning isbotini shoirning xalqona ruhda yozilgan “Tug‘ishganlik” she‘ri orqali guvoh topamiz.:

*O‘zbekni o‘z og‘am etgan,
Ulkan baxtni in‘om etgan,
Bir qozonda osh damlatgan,
Mehri issiq tug‘ishganlik.*

Ko‘rinadiki, o‘zbek xalqi hamda qoraqalpoq xalqi qardosh, do‘stlik rishtalari uzviy bog‘langan hatto kuchli sinovlargayam bardosh beradigan metin iroda, mehr-muhabbat bilan chambarchas bog‘langan. Mirtemir lirikasiga xos xalqchil satrlarni shoir ijodidda ham uchratamiz.

Shuningdek, shoir ijodidagi qaysi she‘rni o‘qimaylik, albatta, barchasining zamirida vatabparvarlik, insoniylik, sadoqat, muhabbat kabi hech qachon zavol ko‘rmaydigan tuyg‘ular tashkil qiladi:

*Uzaq tentiredim A‘nhar boyina.
Ma‘jnun tal shaqasin suvlarg‘a malip,
Senin‘ shashlarin‘di salar o‘yima...
TASHGU desem, mudam tu‘sedi eske.
“Menin‘ jigit waqtim senin‘ qiz waqtin‘...
Sag‘an endi qaytip ma‘lel bermeske
Bel baylap, janimdi otlarg‘a jaqtim.
«Kel» dep shaqiradi ashıq aynalar.*

SHoir yoshligi aynan shu satrlarga jamlangandek. Satrlardagi o‘xshatish, mubalag‘a, jonlantirish kabi badiiy ifodalar vatan manzaralarini yanada tiyranroq anglashga yordam beradi. SHoir she‘riyati oddiy, sodda va halqona ohang bor. Aynan shu ohang bizni ham o‘ziga rom etadi. Vatan haqidagi satrlari esa har birimizning

qalbimizning tubida turgan tuyg'ularimizga hamohang bo'ladi. SHoir ijodining umrboqiyliigi ham bizningcha, ana shunda.

Sir emaski, Vatan, xalq, millat haqida yozilgan she'rlar bisyor. Lekin shoir Ibroyim Yusupov nafaqat o'z xalqi, balki butun dunyodagi nekbin tuyg'ular haqida mana shunday go'zal misralar bitganki, chinakam iste'dod sohiblarigina bu ishni o'quvchining tuyg'ulariga ta'sir qiladigan darajada sof, samimiy va haqqoniy yozishi mumkin. Ibroyim Yusupov xuddi shunday buyuk so'z san'atkori hamda inson qalbining payvandchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibroyim Yusupov.Keuildagi ken dunya. – Nukus,1989.
2. Ibroyim Yusupov.Tanlangan she'rlar. –O'zbekiston,1990.
3. Chingiz Aytmatov maqolasi.-O'zbekiston,2010.